



PRAGMATIKA VA NUTQ AKTLARI NAZARIYASIDA SO'ROQ GAPLAR (Abdulla Qahhorning "Sarob" hamda Teodor Drayzerning "Amerika fojiasi" romanlari misolida)

Raxmatova Gulnoza Isoxonovna,

Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil izlanuvchisi.

Telefon: +99893 236 30 28

Email: gulnoza@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v19iA.1758>

MAQOLA HAQIDA/О СТАТЬЕ

Qabul qilindi: 17-avgust 2026-yil

Tasdiqlandi: 19-avgust 2026-yil

Jurnal soni: 19-A

Maqola raqami: 6

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

so'roq gap, pragmatik lingvistik, nutq akti, illokutiv kuch, bilvosita nutq akti, kontekst, diskurs, kommunikativ maqsad, badiiy matn

ANNOTATSIIYA/ АННОТАЦИЯ

Mazkur tadqiqotda so'roq gaplarning pragmatik xususiyatlari va ularning nutq aktlari tizimidagi o'rni Abdulla Qahhorning "Sarob" hamda Teodor Drayzerning "Amerika fojiasi" romanlari misolida tahlil qilinadi. Tadqiqotda so'roq gaplar faqat grammatik shakl sifatida emas, balki muayyan kommunikativ maqsadni ifodalovchi nutqiy birlik sifatida o'rganiladi. Asarlardan olingan misollar asosida so'roq gaplarning axborot so'rash, shubhani boshlash, aniqlashtirish, tanbeh berish, hayrat bildirish, taklif qilish, e'tiroz va ruhiy kechinmani ifodalash kabi pragmatik vazifalari aniqlanadi. Tahlil jarayonida pragmatik, kontekstual va diskursiv yondashuvlardan foydalanilib, so'roq gaplarning lokutiv, illokutiv va perllokutiv jihatlari ochib beriladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, har ikki adib asarlarida so'roq gaplar badiiy dialogning tabiiyligini ta'minlash, qahramon ruhiyatini ochish va kommunikativ ta'sirni kuchaytirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Tahlil jarayonida so'roq gaplarning pragmatik mazmuni ularning grammatik qurilishi, kommunikativ vaziyat va nutq ishtirokchilarining o'zaro munosabati bilan uzviy bog'liqligi aniqlandi. So'roq konstruksiyalarining ma'nosi ko'pincha kontekst ta'sirida kengayib, bevosita savol mazmunidan tashqari iltimos, taklif, tanbeh, e'tiroz, hayrat, shubha va baholash kabi qo'shimcha kommunikativ ma'nolarni yuzaga chiqaradi. Shuningdek, bunday gaplarning badiiy dialogdagi qo'llanishi personajlarning individual nutqiy xususiyatlari, ruhiy holati va ijtimoiy munosabatlarini ifodalash imkonini beradi. Qiyosiy kuzatishlar so'roq gaplarning pragmatik funksiyalari turli adabiy va madaniy kontekstlarda namoyon bo'lishiga qaramay, ularning asosiy kommunikativ mexanizmlari umumiy xususiyatlarga ega ekanligini ko'rsatadi. Bu jihatlari so'roq gaplarni pragmatik nuqtayi nazardan o'rganish badiiy matnning mazmuni va kommunikativ qatlamlarini chuqurroq yoritishga xizmat qilishini ko'rsatadi.

ABOUT THE PAPER

Accepted: 17 August 2026

Approved: 19 August 2026

Volume: 19-A

Paper number: 6

KEYWORDS

interrogative sentence, pragmat linguistics, speech act, illocutionary force, indirect speech act, context, discourse, communicative intention, literary text

ANNOTATION

This article examines the pragmatic features of interrogative sentences and their role in the system of speech acts based on Abdulla Qahhor's novel "Sarob" and Theodore Dreiser's novel "An American Tragedy". The study analyzes interrogative sentences not only as grammatical structures, but also as speech units that express a specific communicative intention. On the basis of examples taken from literary texts, the research identifies such pragmatic functions of interrogative sentences as requesting information, initiating dialogue, clarification, expressing reproach, surprise, suggestion, objection, and the inner emotional state of characters. The analysis applies pragmatic, contextual, and discourse-based approaches, which make it possible to reveal the locutionary, illocutionary, and perlocutionary aspects of interrogative constructions. The results of the study show that in the works of both writers interrogative sentences serve as an important means of creating natural literary dialogue, revealing the psychology of characters, and strengthening communicative influence. The analysis demonstrates that the pragmatic meaning of interrogative sentences is closely associated with their grammatical structure, communicative situation, and the relationship between the participants of communication. Under the influence of context, interrogative constructions often extend beyond their direct function of requesting information and acquire additional communicative meanings such as request, suggestion, reproach, objection, surprise, doubt, and evaluation. Their use in literary dialogue also makes it possible to reveal the individual speech characteristics, psychological state, and social relationships of the characters. Comparative observations indicate that although the pragmatic functions of interrogative sentences may vary across different literary and cultural contexts, their fundamental communicative mechanisms share a number of common features. These aspects demonstrate that the pragmatic study of interrogative sentences contributes to a deeper understanding of the semantic and communicative layers of literary texts.

Kirish

Til muloqotning vositasi bo'lib, u axborotni verbal va nonverbal shaklda yetkazib berish yoki qabul qilishga xizmat qiladi va o'z navbatida ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish va tartibga solishda asosiy ahamiyatga ega. Til birliklarini grammatik jihatdan emas balki ularning qo'llanish jarayonidagi funksional va kommunikativ xususiyatlari nuqtayi nazaridan o'rganish zamonaviy tilshunoslikda muhimdir. Shu bois, tilning real nutq jarayonidagi qo'llanilishini tahlil qilishda pragmatika va nutq aktlari nazariyasi tilshunoslik bo'limining alohida yo'nalishi sifatida ajralib turadi.

Nutq ishtirokchilari va kommunikativ maqsad bilan bog'liqligi va til birliklarining kontekstdagi ma'nosi pragmatikada o'rganilsa, nutq aktlari nazariyasi esa gaplarning nafaqat ma'nosini, balki aniq harakatni amalga oshirish vositasi ekanligini asoslab beradi. Ushbu nazariyaga ko'ra so'rash, buyurish, iltimos qilish va tasdiqlash kabi nutq aktlari harakatni bajarish uchun matnlarda turli xil holatlarda ishlatiladi. Til tizimida so'roq gaplar axborot olish vositasida qaralsa, pragmatikada ularning ularning

funksional vazifalari keng ekanligi so'nggi yillardagi tadqiqot natijalari ko'rsatmoqda. So'roq gaplar faqatgina so'rash bo'lib qolmasdan, taklif berish, shubhani ifodalash, hatto kinoya va tanbeh berish kabi turli nutq aktlarini ifodalashi mumkin. Shu sababli so'roq gaplarni pragmatika va nutq aktlari nazariyasi doirasida o'rganish ularning yashirin ma'nolari va kommunikativ vazifalarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Mazkur maqolada, so'roq gaplarning pragmatik xususiyatlari hamda ularning nutq aktlari tizimidagi o'rni ilmiy tahlil etiladi, shu bilan birga ular bajaradigan funksiyalar ilmiy jihatdan yoritiladi.

Adabiyotlar tahlili

Nutq aktlari dastlab J.L.Austin nazariyalari asosida tadqiq etilgan. U muloqot jarayonida inson faqat axborot bermasligini, balki ma'lum bir harakatni ham bajarishini "How to do things with words" kitobida ilmiy jihatdan asoslab bergan. Austinning tadqiqotlariga ko'ra so'rash, buyurish, va'da berish va iltimos qilish kabi holatlar nutq aktlari sifatida qaraladi. U shunday aytadi: "Albatta, ham grammatiklar, ham faylasuflar shuni anglab yetishganki, so'roq gaplar, buyruqlar va shunga o'xshash gaplarni oddiy

bayonotlardan kam va yetarlicha mukammal bo'lmagan grammatik belgilar (masalan, so'z tartibi, mayl va boshqalar) yordamida ajratish oson emas. Aslida, gapning o'zi bevosita bayonet bo'la olmaydi; u faqat bayonet hosil qilish jarayonida qo'llaniladi, bayonotning o'zi esa nutq aktlari asosida shakllanadigan mantiqiy konstruksiya hisoblanadi"[1] Austinning g'oyalari davom ettirgan holda J.R.Searle nutq aktlarini tizimlashtirgan va "indirect speech acts" ya'ni bilvosita nutq aktlarini chuqur o'rgangan. Masalan, *Is there any salt here* [2]. Bu jumla grammatik jihatdan so'roq gap, lekin pragmatik jihatdan iltimos ma'nosini bildiradi. H.H.Grice pragmatikada nutqiy implikatura nazariyasi bilan mashhur bo'lib, uning fikricha, gapning haqiqiy ma'nosi ko'pincha faqat so'zlarning lug'aviy ma'nosidan emas, balki kontekstdan kelib chiqadi [3]. S.C.Levinson nutq aktlari, muloqot, kontekst va yashirin ma'nolarni tahlil qilgan. Aynan so'roq gaplarning pragmatik funksiyasini o'rganishda Levinson asarlari ko'p ishlatiladi [4]. Pragmatikada xushmuomalalik tamoyillari ustida ishlagan Geoffrey Leech so'roq gaplarning muloyim iltimos, taklif, maslahat yoki murojaat shaklida ishlatilishini ilmiy izohlab o'tgan [5]. Xushmuomalalik nazariyasi Penelope Brown va Stephen Levinson tomonidan ishlab chiqilib, ularning nazariyasiga ko'ra so'roq gaplar ko'pincha to'g'ridan-to'g'ri buyruq bermaslik, balki suhbatdoshning "hurmatini saqlash" va muloyimlikni ifodalash vositasi sifatida talqin qilinadi [6].

Rus olimlari va tadqiqotchilari ham nutq aktlari va pragmatika bo'yicha samarali tadqiqotlar olib borganlar. Jumladan N.I.Jinkin so'roq gaplar haqidagi "Речь как проводник информации" nomli ishida "savol" va "so'roq" bir xil tushuncha emasligini ta'kidlagan. Uning fikriga ko'ra "so'roq gap" grammatik shakl bo'lsa, "savol" kommunikativ maqsadga ega nutqiy harakatdir [7]. Pragmatikada adresat, kommunikativ vaziyat, yashirin ma'no, nutqiy maqsad kabi masalalar N.D.Artyunova tomonidan igari surilgan. Artyunova shunday deydi: "Gaplarni faqat grammatik birlik emas, balki muloqotdagi maqsadli nutqiy harakat sifatida tahlil qilishga asoslidir". Matn, pragmatic bog'lanishlar, presuppozitsiya va nutq aktlari kabi masalalar dialoglar misolida E.V.Paducheva tomonidan tadqiq etilgan bo'lsa, G.G.Pochepstov ingliz tili grammatikasi, pragmatika va kommunikativ tilshunoslik doirasida ishab kommunikativ funksiyalarni ingliz tilidagi gap turlari bilan bog'liq holda o'rgangan [8]. T.V.Shmeleva nutq janrlarini o'rganib, savol-javo, murojaat, iltimos, maslahat kabi kommunikativ janrlarni tahlil qilishda qo'llagan [9].

O'zbek tilshunosligida pragmatika, nutq aktlari va so'roq gaplarning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari Sh. Safarovning "Pragmalingvistika" monografiyasi [10] va M. Qurbonova, N. Mahmudov, A. Nurmonov, U. Rahimov, Z. Tohirov va Y. Yoqubova kabi tadqiqotchilarning maqolalarida turli jihatdan o'rganilgan. Ularning tadqiqotlarida so'roq gaplar faqat grammatik birlik sifatida emas, balki muloqot jarayonida savol berish, iltimos qilish, ta'sir o'tkazish, kinoya bildirish, ritorik ma'no yaratish va yashirin pragmatik mazmuni ifodalash vositasi sifatida talqin qilinadi.

Tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlariga xos bo'lgan tavsifiy (deskriptiv) va tahliliy metodlaridan kompleks tarzda mazkur maqolada foydalanildi. So'roq gaplarning tadqiqoti nutq aktlari va pragmatik yondashuvi nazariyasida olib borilib, ularning nafaqat shakli, balki funksional-semantik xususiyatlari ham chuqur tahlil qilindi. Tadqiqotimizda pragmatik tahlil metodi vositasida gaplarning yuzaki grammatik shakli bilan ularning real kommunikativ maqsadi o'rtasidagi farqlar ochib berildi. Bu metoddan fydalanish jarayonida asosan so'roq gaplarning illokutsion kuchi, ya'ni nutq egasining asl niyatini aniqlashga alohida e'tibor berildi. Shu bilan birga, kontekstual tahlil metodi qo'llanilib, har bir so'roq gapning ma'nosi uni o'rab turgan nutqiy va vaziyatli muhit bilan bog'liq holda o'rganildi. Bu esa so'roq gaplarning ko'p hollarda yashirin ma'no ifodalashi, ya'ni bilvosita nutq akti sifatida qo'llanish holatlarini aniqlashga yordam berdi. Mazkur metodlar majmuasi orqali so'roq gaplarning pragmatic tabiatini har tomonlama yoritish, ularning nutq aktlari tizimidagi o'rnini aniqlash va funksional imkoniyatlarini ochib berish maqsad qilindi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur maqolada so'roq gaplarning pragmatik va kommunikativ xususiyatlarini aniqlashda pragmatik, kontekstual va diskursiv tahlil metodlaridan kompleks foydalanildi. Pragmatik tahlil orqali so'roq gaplarning grammatik shakli bilan so'zlovchining kommunikativ niyati o'rtasidagi munosabat, xususan, ularning illokutiv kuchi aniqlandi. Kontekstual tahlil yordamida so'roq gaplarning mazmuni nutqiy vaziyat, so'zlovchi va tinglovchi munosabati hamda dialog mazmuni bilan bog'liq holda o'rganildi. Diskursiv yondashuv asosida esa so'roq gaplarning suhbatni tashkil etish, javobga undash, munosabat bildirish va yashirin ma'no ifodalashdagi vazifalari tahlil qilindi. Tadqiqot materiali sifatida Abdulla Qahhorning "Sarob" va Teodor Drayzerning "Amerika fojiasi" romanlaridagi so'roq gaplar tanlanib, ularning lokutiv, illokutiv va perllokutiv xususiyatlari qiyosiy jihatdan ko'rib chiqildi.

Natijalar

So'roq gaplar nutq aktlari nazariyasi bilan bevosita bog'liq, chunki nutq aktlarida gapning faqat grammatik shakli emas, balki so'zlovchining asl maqsadi ham tahlil qilinadi. Maqolamizda Abdulla Qahhor qalamiga mansub "Sarob" romanidagi so'roq gaplarning nutq aktlarida namoyon bo'lish holatlarini tahlillar orqali yoritamiz. Masalan: *Siz Sayfiyni bilasizmi?* "[11] (*Abdulla Qahhor, Sarob, 5-b*). Bu jumlada axborot so'rash pragmatik vazifasi bo'lib kelayapti. Ushbu gap grammatik jihatdan oddiy so'roq gap bo'lsa-da, vaziyatda qizning tortinchoqligi va noqulay holatini ham bildiradi. Bu yerda gapning lokutiv akti savol berish, illokutiv akti tanishuv va muloqotga kirishishdir. So'roq gap orqali suhbat boshlah, aloqa o'rnatish vazifasi bajarilgan. Javobga undash kabi vaziyatlarni hosil qiluvchi so'roq gaplar mavjud: *Siz-chi?* (*Abdulla Qahhor, Sarob, 8-b*). Bu qisqa so'roq gap suhbatdoshni o'z fikrini bildirishga majbur qiladi. U faqat axborot olish emas, balki muloqotni davom ettirish sifatida qo'llaniladi. So'roq gaplarning taklif, yaqinlikni bildirish kabi vazifalari ham mavjud: *"Siz qachon bizlarnikiga borasiz?"* (*Abdulla Qahhor, Sarob, 9-b*). Gap shaklan vaqtini so'raydi, ammo pragmatik jihatdan suhbatdoshning uyga taklif qilish, yaqin munosabat o'rnatish vazifasini bajaradi. Bu bilvosita nutq aktiga misol bo'la oladi. Shunday so'roq gaplar borki, ular suhbatdoshning oldingi xatti-harakatiga nisbatan norozilikni ifodalaydi va buning illokutsion kuchi – tanbeh berishdir. Masalan: *"Nima uchun universitetga olinmaganligingizni aytmadingiz?"* (*Abdulla Qahhor, Sarob, 12-b*). Asardan oilngan boshqa so'roq gapda esa hayrat ifodalanadi: *"Bu menmi?"* (*Abdulla Qahhor, Sarob, 29-b*). Bu savol oddiy ma'lumot so'rash emas, balki qahramonning ichki hayrati va hissiy holatini ifodalaydi. So'roq gap ekspressiv-pragmatik vazifa bajarayapti. Sabab so'rash, munosabat bildirish mazmunidagi so'roq gaplar kommunikativ nutqimizda ko'p ishlatiladi. Masalan: *"Nega bunday achchig'ingiz...?"* (*Abdulla Qahhor, Sarob, 30-b*). Gapda sabab so'rash bilan birga suhbatdoshlarning kayfiyatiga munosabat bildirish majud. Bu yerda so'roq gap konflikti vaziyatni yumshatish va izoh talab qilish vazifasini bajaradi.

Drayzerning "Amerika fojiasi" romanida ham so'roq gaplar qahramonlarning ruhiy holatini ochishda xizmat qiladi. Masalan: *"Iso qayerda edi?"* [12] Bu gap ritorik savol vazifasida kelayapti. Ushbu savolda aniq javob talab qilinmaydi. Qahramonlarning ruhiy tushkunligi, ishonchsizlik va ichki iztirobi ifodalanadi. Demak, so'roq gap ekspressiv nutq akti sifatida ishlatilgan. Hayrat va iztirobni anglatuvchi yana bir so'roq gapda shunday deyilgan: *"Buni qanaqa tushunsa bo'ladi?"* (*Teodor Drayzer, 19-b*). Savol voqeani tushunishga urinishni bildiradi, lekin uning asosiy pragmatik vazifai qahramonning ruhiy larzasini ko'rsatishdir. *"Qog'oz bilan patqalam kerak bo'lganda ularni qayerdan olasizlar?"* (*Teodor Drayzer, 37-b*). Bu so'roq gapda esa amaliy axborot so'rash nazarda tutiladi. Ushbu gapda Klaydning yangi muhitga moslashish jarayonini ifodalaydi. Uning nutqida xavotir, noaniqlik va tajribasizlik seziladi. Buyruqni tekshirishni ifodalovchi so'roq gaplar ham asarda ishlatilgan. Masalan: *"Tushundingizmi?"* (*Teodor Drayzer, 39-b*). Suhbatni boshlashga undovchi savollar ham mavjud. Masalan: *"Yangi keldingizmi?"*, Shaklan so'roq gap bo'lsada, pragmatic jihatdan u ko'rsatmani mustahkamlash, suhbatdoshdan itoat va e'tibor talab qilish vazifasini bajaradi. Bu savol oddiy ma'lumot olish bilan birga tanishuv va ijtimoiy aloqa o'rnatish vazifasini bajaradi. *"Siz qaysi qavatga, sakkizinchigami?"* (*Teodor Drayzer, 40-b*). Ushbu so'roq gap xizmat jarayonida kerakli ma'lumotni aniqlashga qaratilgan. Bu yerda savolning funksiyasi kommunikativ aniqlikni ta'minlash.

Turli nutq aktlarini ifodalovchi so'roq gaplar olib borilgan tahlil natijasiga ko'ra badiiy matnda faqat axborot olish vositasida emas, balki turli xil kommunikativ vaziyatlarni ifodalashi aniqlandi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, mazmunan iltimos, taklif, tanbeh, hayrat, e'tiroz va aniqlashtirish kabi nutq aktlarini ifodalovchi vaziyatlar so'roq gaplar ko'rinishida kelishi aniqlandi.

Abdulla Qahhorning "Sarob" romanida so'roq gaplar, asosan, qahramonlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni, ichki kechinmalarni, tortinchoqlik, hayrat, kinoya va norozilik kabi holatlarni ochib berishda faol qo'llangan. Romandagi so'roq gaplar ko'pincha dialogic nutq tarkibida kelib, personajlarning xarakteri, ruhiy holati va suhbat jarayonidagi munosabatini aniqlashga xizmat qiladi. Masalan, ayrim so'roq gaplar suhbatni boshlash va davom ettirishga xizmat qilsa, boshqalarni tanbeh berish yoki yashirin e'tirozni ifodalash vazifasini bajaradi. Bu holat so'roq gaplarning bilvosita nutq akti sifatida imkoniyatlari keng ekanligini anglatadi.

Teodor Drayzerning "Amerika fojiasi" romanida esa so'roq gaplar qahramonlarning ichki ziddiyati, ruhiy bosimi, ijtimoiy muhitga moslashish jarayoni va hayotiy qiyinchiliklarini ifodalashda muhim pragmatik vosita sifatida qo'llangan. Romanda savol shaklidagi gaplar ba'zan aniq javob olish uchun emas, balki qahramonning ayratini, xavotirini, tushkunligini yoki vaziyatni anglashga bo'lgan urinishini

ifodalash uchun ishlatiladi. Bunday so'roq gaplar ekspressiv nutq aktlari sifatida baholanadi.

Tadqiqot davomida so'roq gaplarning nutq aktlari tizimida bir necha asosiy vazifani bajarishi aniqlandi. Birinchidan, ular axborot olish vazifasini bajaradi. Ikkinchidan, suhbatdoshni javob berishga, fikr bildirishga yoki muayyan harakatga undaydi. Uchinchidan, so'roq gaplar orqali so'zlovchi o'zining hissiy munosabatini, ya'ni hayrat, norozilik, shubha yoki iztirobini ifodalaydi. To'rtinchidan, ayrim so'roq galar bilvosita nutq akti sifatida, taklif, iltimos yoki tanbeh ma'nosini anglatadi.

Qiyosiy tahlil natijasida, Abdulla Qahhor va Teodor Drayzer asarlarida so'roq gaplarning pragmatik vazifalari o'xshash jihatlariga ega ekanligi aniqlandi. Har ikki adib so'roq gaplardan qahramonlar xarakterini ochish, dialogni tabiiylashtirish, ruhiy holatni ifodalash va kommunikativ ta'siri kuchaytirish maqsadida foydalangan. Shu bilan birga, Abdulla Qahhor asarida so'roq gaplar ko'proq ijtimoiy munosabat, kinoya, ichki tortinchoqlik va suhbatdagi nozik ma'no qatlamlarini ifodalasa, Teodor drayzer asarida ular ko'proq ruhiy bosim, ijtimoiy tengsizlik, hayotiy tanlov va ichki ziddiyatlarni ochishga xizmat qiladi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, so'roq gaplarning pragmatic tabiati ularning kontekstda qanday qo'llanishi bilan belgilanadi. Shuning uchun so'roq gaplarni faqat grammatik shakliga qarab emas, balki ularning nutqiy vaziyatdagi vazifasi, so'zlovchining niyati va tinglovchiga ko'rsatadigan ta'siri asosida tahlil qilish zarur. Bu esa so'roq gaplarni nutq aktlari nazariyasi doirasida o'rganishning ilmiy ahamiyatini tasdiqlaydi.

Badiiy matnda so'roq gaplar ko'p fuksiyali pragmatic birlik ekanligi isbotlandi. Ushbu so'roq gaplar nutq jarayonida nafaqat savol berish, balki ta'sir o'tkazish, munosabat bildirish, suhbatni boshqarish, yashirin ma'no ifodalash va qahramon ruhiyatini ochib berish kabi muhim vazifalarni bajaradi. Shu sababli so'roq gaplarni pragmatik va nutq aktlari nazariyasi asosida tahlil qilish badiiy matnning ichki mazmunini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Muhokama

So'roq gaplarning pragmatik xususiyatlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ularning kommunikativ mazmuni faqat grammatik shakl bilan belgilanmaydi. So'roq shaklidagi gap muayyan nutqiy vaziyatda axborot olishdan tashqari, suhbatdoshga ta'sir ko'rsatish, muloqotni davom ettirish, munosabat bildirish yoki yashirin ma'noni ifodalash kabi vazifalarni ham bajarishi mumkin. Shu jihatdan so'roq gaplarning mazmunini belgilashda kontekst, kommunikativ vaziyat va so'zlovchining maqsadi muhim omil hisoblanadi.

Abdulla Qahhorning "Sarob" romanidagi misollar so'roq gaplarning, avvalo, personajlar o'rtasidagi ijtimoiy va psixologik munosabatlarni ifodalashdagi imkoniyatlari kengligini ko'rsatadi. "*Siz Sayfiyni bilasizmi?*" kabi gap bevosita axborot olishga qaratilgan bo'lsa-da, uning qo'llanish vaziyati suhbatni boshlash va muloqot o'rnatish funksiyasini ham yuzaga chiqaradi. "*Siz-chi?*" kabi qisqa so'roq gap esa grammatik jihatdan minimal shaklda bo'lib, kommunikativ jihatdan suhbatdoshni javob berishga va muloqotni davom ettirishga undaydi. Demak, so'roq gapning kommunikativ qiymati uning hajmiga emas, balki nutqiy vaziyatdagi funksiyasiga bog'liq.

Romandagi "*Siz qachon bizlarnikiga borasiz?*" shaklidagi so'roq gap esa so'rash va taklif qilish ma'nolarining birlashishi bilan xarakterlanadi. Bunda vaqt haqidagi axborotni olish tashqi mazmunni tashkil etsa, suhbatdoshni yaqin munosabatlarga chorlovchi taklif mazmuni pragmatik qatlamda namoyon bo'ladi. Bunday holatlar so'roq gaplarning bilvosita nutq akti sifatida qo'llanishini ko'rsatadi. Shuningdek, "*Nima uchun universitetga olinmaganligingizni aytmadingiz?*" kabi konstruksiyada axborot olish maqsadi bilan birga tanbeh va norozilik ma'nosi kuchayadi. "*Bu menmi?*" singari so'roq gaplarda esa javob olish ehtiyoji ikkinchi darajaga tushib, qahramonning hayrati va ichki hissiy holati asosiy kommunikativ mazmunga aylanadi.

Teodor Drayzerning "Amerika fojiasi" romanidagi so'roq gaplar ham ko'p fuksiyali pragmatik birlik sifatida namoyon bo'ladi. "*Iso qayerda edi?*" kabi savollarda bevosita javob talab qilishdan ko'ra ruhiy holatni

ifodalash ustunlik qiladi. "*Buni qanaqa tushunsa bo'ladi?*" kabi konstruksiyada esa savol shakli qahramonning vaziyatni anglashga bo'lgan intilishi, hayrati va ichki iztirobini ifodalashga xizmat qiladi. Bunday birliklarning ekspressiv xususiyati ularning kontekstual mazmuni orqali yuzaga chiqadi.

Roman materiallari asosida kuzatilgan "*Qog'oz bilan patqalam kerak bo'lganda ularni qayerdan olasizlar?*" kabi savollar esa bevosita axborot olishga qaratilgan kommunikativ akti ifodalaydi. Bunday gaplarda so'roq shakli va kommunikativ maqsad o'rtasida bevosita muvofiqlik mavjud. "*Tushundingizmi?*" kabi konstruksiyalarda esa savol javob olish bilan bir qatorda suhbatdoshning e'tiborini tekshirish va oldingi ko'rsatmaning anglanganligini aniqlash vazifasini bajaradi. "*Yangi keldingizmi?*" singari savollar esa axborot olish bilan birga tanishuv va ijtimoiy aloqa o'rnatish vositasiga aylanadi.

Qiyosiy jihatdan qaralganda, ikki badiiy asarda so'roq gaplarning umumiy pragmatik xususiyatlari mavjud. Har ikki ijodkor so'roq konstruksiyalaridan dialogning tabiiyligini ta'minlash, personajlarning kommunikativ niyatini ochish, ruhiy holatini ifodalash va suhbatdoshga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatish uchun foydalanadi. Biroq ularning badiiy vazifasida ayrim farqlar ham ko'zga tashlanadi. "Sarob"da so'roq gaplar ko'proq personajlararo munosabat, ijtimoiy yaqinlik, tortinchoqlik, kinoya, norozilik va yashirin munosabatlarni ifodalashga yo'naltirilgan. "Amerika fojiasi"da esa so'roq konstruksiyalarining ruhiy bosim, ikkilanish, xavotir, hayrat va ichki ziddiyatlarni ochib berishdagi funksiyasi nisbatan kuchliroq namoyon bo'ladi.

Mazkur kuzatishlar so'roq gaplarni faqat sintaktik jihatdan tasniflash ularning to'liq kommunikativ tabiatini ochib bera olmasligini ko'rsatadi. Bir xil grammatik shakl turli kontekstlarda turlicha illokutiv kuchga ega bo'lishi mumkin. Masalan, savol shakli bir vaziyatda sof axborot talab qilsa, boshqa vaziyatda iltimos, taklif, tanbeh, e'tiroz yoki ekspressiv munosabatni anglatishi mumkin. Shu sababli so'roq gaplarni pragmatik jihatdan o'rganishda lokutiv mazmun bilan bir qatorda illokutiv niyat va kutilayotgan perlokutiv ta'siri ham hisobga olish zarur.

Badiiy dialoglar tahlili so'roq gaplarning nutq aktlari tizimida alohida funksional imkoniyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Ular kommunikativ almashuvni boshqarish, suhbatdoshni muayyan javob yoki harakatga yo'naltirish, personajlar o'rtasidagi munosabatlarni ifodalash hamda matndagi psixologik holatni kuchaytirishda faol xizmat qiladi. Shunday qilib, so'roq gaplarning pragmatik mazmuni ularning grammatik shakli, kontekst, kommunikativ vaziyat va so'zlovchining niyati o'zaro birligi asosida yuzaga keladi.

Xulosa

Mazkur maqolada so'roq gaplarning lingvistik va kommunikativ xususiyatlari pragmatika va nutq aktlari nazariyasi doirasida har tomonlama tahlil etildi. Olib borilgan izlanishlar natijasida so'roq gaplar an'anaviy qarashlarda talqin etilganidek faqat axborot olish vositasi emasligi, balki murakkab pragmatic funksiyalarni bajaruvchi nutq birliklari ekanligi asoslandi. So'roq gaplarning turli pragmatik ko'rinishlari aniqlanib, ularning haqiqiy kommunikativ maqsadi ko'p hollarda grammatik shakldan farq qilishi tahlillar asosida isbotlandi. Xususan, so'roq gaplar orqali iltimos, buyruq, tanbeh, baho berish kabi nutq aktlari bilvosita tarzda ifodalanishi ilmiy jihatdan asoslab berildi. Shuningdek, nutq ishtirokchilari o'rtasidagi munosabat va kommunikativ vaziyatni aniqlashda kontekst hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Bu esa pragmatik tahlilning ti birliklarini teranroq o'rganishda muhim metodologik vosita ekanligini ko'rsatadi. Kommunikativ nutq jarayonida turli strategik vazifalarni bajarilganligi uchun so'roq gaplar nutq aktlari tizimida muhim o'rin egallaydi. Tilshunoslikda yangi ilmiy xulosalarga kelishda hamda nutqning funksional mohiyatini teranroq anglashda so'roq gaplarni pragmatik nuqtaiy nazardan o'rganish muhimdir. Ushbu maqolada berilgan tahlil natijalari kelgusida pragmatik tahlil, diskurs tahlil va nutq madaniyati yo'nalishlarida olib boriladigan ilmiy izlanishlar uchun oz bo'lsada nazariy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Austin, J. L. How to Do Things with Words: The William James Lectures Delivered at Harvard University in 1955. – Oxford: Clarendon Press, 1962. – P. 2.
2. Brown, P., Levinson, S. C. Politeness: Some Universals in Language Usage. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – 345 p.
3. Grice, P. Studies in the Way of Words. – Harvard: Harvard University Press, 1991.
4. Leech, G. N. The Pragmatics of Politeness. – Oxford: Oxford University Press, 2014. – P. 184.
5. Levinson, S. C. Presumptive Meanings: The Theory of Generalized Conversational Implicature. – Cambridge: MIT Press, 2000. – P. 2.
6. Searle, J. R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969. – P. 53.

7. Жинкин, Н. И. Речь как проводник информации. – М.: Наука, 1982. – С. 60.
8. Падучева, Е. В. Русское отрицательное предложение. – М.: Языки славянской культуры, 2013. – 303 с.
9. Шмелева, Т. В. Анкета речевого жанра // Жанры речи. – Саратов: СГУ, 1990.
10. Сафаров, Ш. С. Прагмалингвистика: монография. – Тошкент: 2008. – 318 б.
11. Каххор, А. Сароб: роман. – Тошкент: Шарк НМК Бош тахририяти, 1995. – 240 б.
12. Драйзер, Т. Америка фожиаси: роман. Биринчи қисм / тарж. Эркин Носиров. – Тошкент: Фағур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986. – 208 б.